

12-1-2019

THE MECHANISM OF DISTRIBUTING THE PROFIT AND DIVIDEND POLICY

N. Sherquziyeva

Tashkent Financial Institute

R. Akhmedov

Tashkent Financial Institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Sherquziyeva, N. and Akhmedov, R. (2019) "THE MECHANISM OF DISTRIBUTING THE PROFIT AND DIVIDEND POLICY," *International Finance and Accounting*: Vol. 2019 : Iss. 6 , Article 4.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss6/4>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

THE MECHANISM OF DISTRIBUTING THE PROFIT AND DIVIDEND POLICY

The article provides scientific proposals and practical recommendations on the analyzing the essence of dividend policy, the distribution of profit of joint-stock companies, as well as, the effective dividend policy in the condition of current economic reforms.

Keywords: stock, joint stock companies, charter capital, net profit, dividend, dividend policy, dividend per share.

Socio-economic transformations in the Republic of Uzbekistan are aimed at ensuring long-term sustainable economic growth through improved productivity in all sectors and sectors of the economy and, consequently, on the continual improvement of the well-being of the population in the country.

In this regard, the investment attractiveness of corporate structures is also reflected in dividend policy, and the issue of profit sharing in joint stock companies is one of the most important issues facing corporate governance. The reason is that each shareholder strives to receive the appropriate portion of the profits based on their contribution. On the other hand, managers who want to close a joint-stock company with a profit will also want to receive some of the profits as a bonus. Shareholders also need to reinvest the profits of the joint stock company in order to further their activities.

Each aspect of the abovemust be taken into account in the distribution of profits. Otherwise, there may be a conflict of interest between the parties, which may result in corporate conflicts. In addition, the distribution of profits among shareholders should consider the possibility of attracting additional resources to expand operations.

A charter shall be set up in the charter of joint stock companies but not less than fifteen percent of the authorized capital. The reserve fund is formed by the obligatory annual deductions from the net profit until it reaches the amount specified in the charter. The amount of annual deductions for the benefit is provided by the charter of the company, but not less than five percent of the net profit until it reaches the amount specified in the company's charter. Clearly, corporate governance focuses on the formation of reserve funds in the distribution of profits.

To determine whether dividend payout ratio affect really the well-being of shareholders, we must first analyze the corporate structure as an important decision to fund dividend policy. This decision is related directly to the retention of income for the needs of the corporate structure.

The issue of distributing profits in corporate governance is addressed primarily by the Supervisory Board. The Supervisory Board will then bring the issue to the General Meeting of Shareholders. In this case, the distribution of profits to the reserve fund, the issuance of additional shares as a result of reinvestment, the payment of dividends on ordinary and preference shares, and the general meeting of shareholders will be discussed.

Dividend is a type of income that a shareholder receives. However, it is also a serious technical indicator, which means it can calculate other quantities, including stock prices. Many analytical agencies operating in economically developed countries periodically publish information on which joint stock companies make real dividend payments. It analyzes the actual yield of securities. The figures obtained are an indicator of the financial condition of the joint stock company for a long time. Also, different ratings are usually based on external criteria, and the dividend rate is one of those criteria.

Currently, the procedure of dividend payments in Uzbekistan is regulated by the Law on Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights. It has some restrictions. Under this law, dividends can be paid out of the current year's net profit. This reduces the ability of stock companies to pursue dividend policy.

In a market economy, the development of dividend policy in joint stock companies is an important component of corporate governance. The main purpose of the dividend policy is to establish an optimal balance between the current use of the property by the owners and its future growth. Dividend policy is formed by the Supervisory Board of Joint Stock Companies. The main purpose of legal entities and individuals buying shares is to earn dividends.

Dividends are paid out of the net profit of the company and (or) retained earnings for the past year after paying taxes and other mandatory payments.

The high level of state participation in joint stock companies in our country, therefore, in some cases a negative impact on the profitability of the shareholders in the profit distribution mechanism, hinders market development and investment attraction.

While corporate governance in most large corporations is currently under development, their impact on society is negligible. By enhancing the profit-sharing mechanism and dividend policy in corporate governance, not only will the company's reputation be enhanced, but also equity will contribute to the company's investment attractiveness.

Given the dividend policy of joint stock companies in our country today, we can see that, despite the increase in the net profit of the joint-stock companies, the dividend yield remains low in some joint stock companies. This situation necessitates the coordination of joint stock companies' activities in the local securities market with the emerging trends in the international securities market, prioritizing corporate interests. For this purpose, it is necessary to eliminate the factors that adversely affect the growth of the role of joint-stock companies in dividend, emission and investment policies in the securities market and create important conditions for their role in the stock market.

**Sherkuziyeva N. – TMI tayanch doktoranti,
Axmedov R.K. – TMI magistranti**

FOYDANI TAQSIMLASH MEXANIZMI VA DIVIDEND SIYOSATI

Maqolada zamonaviy iqtisodiy islohotlar sharoitida dividend siyosatining ahamiyatini tahlil qilish, aksiyadorlik jamiyatlari foydasini taqsimlash, shuningdek samarali dividend siyosati bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: aksiya, aksiyadorlik jamiyati, ustav kapitali, sof foyda, dividend, dividend siyosati, nominal qiymati, bir dona aksiyaga to'langan dividend.

МЕХАНИЗМ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ПРИБЫЛИ И ДИВИДЕНДНАЯ ПОЛИТИКА

В статье анализ важности дивидендной политики в контексте современных экономических реформ, распределение прибыли в акционерных обществах, а также выводы и рекомендации по эффективной дивидендной политике.

Ключевые слова: акции, акционерное общество, уставный капитал, чистая прибыль, дивиденд, дивидендная политика, номинальная стоимость, дивиденд на одной акцию.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va shu asosda mamlakatimiz hududida istiqomat qilayotgan kishilar turmush farovonligini muttasil yaxshilab borishga qaratilgan.

Shu o'rinda, korporativ tuzilmalarning investitsion jozibadorligi dividend siyosatida ham namoyon bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash masalasi korporativ boshqaruv oldidagi jiddiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki har bir aksiyador kiritgan ulushidan kelib chiqqan holda foydaning tegishli qismini olishga intiladi. Boshqa tomondan aksiyadorlik jamiyatining hisobot davrini foyda bilan yakunlashini ta'minlagan boshqaruvchilar ham foydaning ma'lum bir qismini mukofot tarzida olishni xohlaydi. Shuningdek aksiyadorlar oldida aksiyadorlik jamiyati faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida erishilgan foydani reinvestitsiyalash masalasi ham turadi.

Foydani taqsimlashda har bir jihat inobatga olinishi shart. Aks holda tomonlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi, natijada esa korporativ nizolar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari foydaning aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishida faoliyatni kengaytirish maqsadida qo'shimcha resurslar jalb qilish imkoniyatlarini ham hisobga olish kerak.

Aksiyadorlik jamiyatlari ustavida nazarda tutilgan, ammo ustav kapitalining o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi. Zaxira fondi ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy

ajratmalar orqali shakllantiriladi. Foydadan har yilgi ajratmalarning miqdori jamiyat ustavida nazarda tutiladi, ammo bu miqdor jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lmash kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, korporativ boshqaruvda foydani taqsimlashda zaxira fondlarni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Dividendlarni to'lash koeffitsienti chindan ham aksiyadorlarning farovonligiga ta'sir qilishini aniqlash uchun, avvalo korporativ tuzilmaning dividend siyosatini moliyalashtirish borasidagi muhim qaror sifatida tahlil qilishimiz kerak bo'ladi. Chunki, bu qaror korporativ tuzilmani rivojlantirish ehtiyojlari uchun daromadni saqlab qolishga bevosita daxldor hisoblanadi.

Korporativ boshqaruvda foydani taqsimlash masalasi avvalo Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi. So'ngra Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga masala kiritiladi. Bunda foydani taqsimlashda zaxira fondiga ajratmalar qilish, reinvestitsiyalash natijasida qo'shimcha aksiyalar chiqarish, oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash masalalari ko'rib chiqilishi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida muhokama qilinib tegishli qarorlar qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida aksiyadorlik jamiyatlari moliya-xo'jalik faoliyati hisoboti davri yakunlari bo'yicha moliyaviy natija shakllantiriladi. Bunda barcha soliq majburiyatlari bajarilgach, korxonada ixtiyorida qolgan foyda taqsimlanmagan foydaga o'tkaziladi[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dividend hisobiga aksiyadorlik jamiyati olgan foydada qatnashish huquqi amalga oshiriladi. Dividendlarni olish tartibi va shartlari, shuningdek ularning miqdori aksiyadorlik jamiyati tomonidan olib borilayotgan dividend siyosati bilan belgilanadi. Bu dividend siyosatining jamiyatdagi roli va ahamiyatini va unga biznesda, moliyaviy menejmentda va moliyaviy fanda unga qaratilayotgan e'tiborni anglatadi. Shunday qilib, dividend siyosati nazariyasida asosiy savollar quyidagicha: jamiyatda dividend to'lovlari jamiyatning bozor qiymatiga ta'sir qiladimi va o'z aksiyadorlariga katta dividendlar to'laydigan jamiyatlar bozorni qanday baholaydilar?


Shuning uchun foydani taqsimlash masalasi, xususan, dividend siyosati, R.Brayl va S.Mayersaning fikriga ko'ra, moliya nazariyasida hal qilinmagan muammolar o'ntaligiga kiritgan. Ushbu masalalar olimlar va amaliyotchilar o'rtasida munozarali mavzu bo'lib qolmoqda[2].

Ma'lumki, dividend siyosati bo'yicha keng ilmiy munozaralarning boshlanishi M.Miller va F.Modigliani tomonidan o'z moqalosisida yaratilgan. Mualliflar bozor sharoitida jamiyatning qiymati dividend siyosatiga bog'liq emasligini, aksincha aksiyadorlarning boyligiga qaratilgan. Ularning fikricha, jamiyatlarning daromad olish imkoniyati bilan belgilanadi va ko'p jihatdan foydani taqsimlash mexanizmiga emas, balki investitsiya siyosatining samaradorligiga bog'liq. Ular taqdim etgan model dividendlarning nomuvofiqligi nazariyasiga asos yaratdi. Boshqacha qilib aytganda, dividend siyosati kompaniyaning bozor qiymatiga ta'sir etuvchi omil emas,

shundan kelib chiqib investitsiya loyihalarini moliyalashtirgandan so'ng dividendlar qoldiq asosida hisoblanishi kerak.

Kelgusida dividend siyosati masalasiga nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish, dividendlarning nomuvofiqligi to'g'risidagi taxminlar ahamiyatining kamayishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi[3].

Xorijiy mamlakatlarda aksiyadorlarga dividend to'lashning tartibi va o'ziga xos jihatlari qonunchilik bilan tartibga solinadi. Mamlakatimizda mazkur jarayonni tartibga solish O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 48-moddasiga asosan amalga oshiriladi va unga asosan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari dividendlarni to'lash to'g'risidagi qaror qabul qilishi va to'lashi mumkin bo'lmagan holat.[1]

O'zbek olimlaridan S.Elmirzayev oqilona dividend siyosati orqali quyidagi erishish mumkin bo'lgan natijalar haqida o'z ilmiy fikrlarini bildirgan:

- aksiyalarni joylashtirish orqali kapital jalb qilishning qarz kapitali jalb qilishga nisbatan arzonligi sharoitida investitsion jozibadorlikni ta'minlashga xizmat qilishi;

- aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larni jalb qilish va o'z navbatida aholining aksiyalar orqali daromadlarini oshirib borishi natijasida o'rta mulkdorlar sinfi shakllanishiga olib kelishi;

- aksiyadorlik jamiyatining boshqa kompaniyalar tomonidan qo'shib olimshidan himoya vazifasini o'tashi;

- IPO o'tkazish orqali xorijiy kapital jalb qilish uchun asos vazifasini bajarilishi [4].

Dividend - aksiya egasi oladigan daromad turi. Biroq u jiddiy texnik ko'rsatkich ham hisoblanadi, ya'ni uning yordamida boshqa miqdorlar, shu jumladan, aksiyalarning narxlari hisoblab chiqiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatuvchi ko'plab tahliliy agentliklar qaysi aksiyadorlik jamiyatlar real dividend to'lovlarini amalga oshirayotganligi haqidagi axborot ma'lumotlarini davriy ravishda chop etib borishadi. Bunda qimmatli qog'ozlarning real daromad keltirish miqdorlari tahlil qilinadi. Olingan raqamlar ancha uzoq vaqt mobaynida aksiyadorlik

jamiyatining moliyaviy ahvolidan indikatorini hisoblanadi. Bundan tashqari, turli xildagi reytinglarni tuzish, odatda, tashqi mezonlarga asoslanadi va dividend stavkasi ana shunday mezonlardan biridir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda dividend to‘lovlarining tartibi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Unda ayrim cheklolar belgilangan. Mazkur qonunga muvofiq dividendlarni joriy yilning sof foydasidan to‘lanishi mumkin hisoblanadi. Bu aksiyadorlik jamiyalarining dividend siyosatini amalga oshirish imkoniyatini qisqartiradi.

Amaldagi tartibga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyatlari oldingi moliya yillari natijalariga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimiz hududida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari orasidan tanlab olingan AT “Aloqabank”, “Turonbank” ATB, “Kafolat” AJ, “Kvarts” AJ va “O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi” AJ tomonidan 2014-2018 yillarda dividend to‘lovlari tahlilini ko‘rib chiqamiz:

1-jadval

2014-2018 yillarda AT “Aloqabank” tomonidan dividend to‘lovlari tahlili (ming so‘m)[5]

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018
Ustav kapitali	99 000 000,0	106 766 291,6	117 442 920,8	238 552 920,7	883 984 520,5
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya soni	882 000,0	952 602,7	952 602,7	1 953 511,7	7 287 657,2
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya jami summasi	97 020 000,0	104 786 291,6	115 264 920,8	236 374 920,7	881 806 520,5
Egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya soni	18 000,0	18 000,0	18 000,0	18 000,0	18 000,0
Egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya jami summasi	1 980 000,0	1 980 000,0	2 178 000,0	2 178 000,0	2 178 000,0
1 dona aksiyaning nominal qiymati (so‘mda)	110,0	110,0	121,0	121,0	121,0
Sof foyda	22 070 000,0	29 000 000,0	35 000 000,0	70 707 708,0	137 777 778,0
To‘langan dividendlar:	396 000,0	396 000,0	8 504 144,5	19 345 593,7	36 143 460,8
Sof foydaning dividendga yo‘naltirilgan qismi	1,79%	1,37%	24,30%	27,36%	26,23%
Bir dona oddiy aksiyaga to‘langan dividend (so‘mda)	-	-	8,5	9,7	4,8
Bir dona oddiy aksiyaga to‘langan dividend (%da)	0,00%	0,00%	7,00%	8,00%	20,00%
Bir dona imtiyozli aksiyaga to‘langan dividend (so‘mda)	22,0	22,0	24,2	24,2	48,4
Bir dona imtiyozli aksiyaga to‘langan dividend (%da)	20,00%	20,00%	20,00%	20,00%	4,00%

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlaridan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlashimiz mumkinki, AT “Aloqabank”ning ustav kapitali yillar davomida oshirib borilgan

hamda 2018 yilda 883,98 mlrd. soʻmni tashkil etgan. Shu oʻrinda 2014 yilda sof foydasi hajmi 22,07 mlrd. soʻm boʻlib sof foydani dividendga yoʻnaltirilganligi 1,79 %ni tashkil qiladi. 2018 yilga kelib esa jamiyatning sof foydasi 137,78 mlrd. soʻmni tashkil qilib sof foydani dividendga yoʻnaltirilgan qismi 26,23 %ni tashkil qilgan yoki 2014 yilga nisbatan 91,3 barobarga oshgan. Demak, oxirgi yillar mobaynida jamiyat tomonidan olingan sof foydani dividendga yoʻnaltirilgan qismi oshib borganini koʻrishimiz mumkin.

2-jadval

2015-2017 yillarda “Turonbank” ATB tomonidan dividend toʻlovlari tahlili (ming soʻm)[6]

Yillar	2015	2016	2017	2018
Ustav kapitali	46 501 953,0	50 002 100,0	156 717 339,0	765 361 049,4
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya soni	22 734,3	24 445,5	87 219,2	445 244,9
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya jami summasi	38 648 335,5	41 557 350,0	148 272 589,0	756 916 299,4
Egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya soni	4 619,8	4 967,5	4 967,5	4 967,5
Egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya jami summasi	7 853 617,5	8 444 750,0	8 444 750,0	8 444 750,0
1 dona aksiyaning nominal qiymati (soʻmda)	1 700,0	1 700,0	1 700,0	1 700,0
Sof foyda	16 146 729,0	16 331 609,0	14 608 605,0	32 406 635,0
Toʻlangan dividendlar	4 071 498,2	4 839 486,0	3 309 944,4	12 058 703,3
Sof foydaning dividendga yoʻnaltirilgan qismi	25,22%	29,63%	22,66%	37,21%
Bir dona oddiy aksiyaga toʻlangan dividend (soʻmda)	110,0	128,9	18,6	23,3
Bir dona oddiy aksiyaga toʻlangan dividend (%da)	6,47%	7,58%	1,09%	1,37%
Bir dona imtiyozli aksiyaga toʻlangan dividend (soʻmda)	340,0	340,0	340,0	340,0
Bir dona imtiyozli aksiyaga toʻlangan dividend (%da)	20,0%	20,0%	20,0%	20,0%

Yuqoridagi 2-jadval maʼlumotlaridan kelib chiqqan holda shuni taʼkidlashimiz mumkinki, “Turonbank” ATBning ustav kapitali yillar davomida oshirib borilgan hamda 2018 yilda 756,36 mlrd. soʻmni tashkil qilgan. Shu oʻrinda 2015 yilda sof foydasi hajmi 16,15 mlrd. soʻm boʻlib, sof foydani dividendga yoʻnaltirilgan qismi 25,22 %ni tashkil qiladi. 2018 yilga kelib esa jamiyatning sof foydasi 32,4 mlrd. soʻmga oshgan, sof foydani dividendga yoʻnaltirilgan qismi 37,21 %ni tashkil qilgan yoki 2015 yilga nisbatan ijobiy tebranish tendensiyasini koʻrishimiz mumkin.

3-jadval

2014-2018 yillarda “Kafolat” AJ tomonidan

dividend to'lovlari tahlili (ming so'm)[7]

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018
Ustav kapitali	28 155 874,2	29 930 480,9	31 741 677,5	32 912 552,1	33 571 169,0
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya soni	18 289,9	18 289,9	31 733 002,5	32 903 557,1	33 561 994,0
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya jami summasi	28 148 179,2	29 922 300,9	31 733 002,5	32 903 557,1	33 561 994,0
Egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya soni	5,0	5,0	8 675,0	8 995,0	9 175,0
Egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya jami summasi	7 695,0	8 180,0	8 675,0	8 995,0	9 175,0
1 dona aksiyaning nominal qiymati (so'mda)	1 539,0	1 636,0	1,0	1,0	1,0
Sof foyda	2 531 717,7	2 605 121,3	3 080 440,3	3 524 962,2	4 060 438,7
To'langan dividendlar:	381 622,4	520 929,9	1 588 818,9	1 976 462,2	2 016 013,4
Sof foydaning dividendga yo'naltirilgan qismi	15,07%	20,00%	51,58%	56,07%	49,65%
Bir dona oddiy aksiyaga to'langan dividend (so'mda)	20,76	28,37	0,05	0,06	0,06
Bir dona oddiy aksiyaga to'langan dividend (%da)	1,35%	1,73%	5,00%	6,00%	6,00%
Bir dona imtiyozli aksiyaga to'langan dividend (so'mda)	384,8	409,0	0,25	0,25	0,25
Bir dona imtiyozli aksiyaga to'langan dividend (%da)	25,0%	25,0%	25,0%	25,0%	25,0%

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, "Kafolat" AJning ustav kapitali yillar davomida oshirib borilgan hamda 2018 yilda 33,57 mlrd so'mni tashkil etgan. Shu o'rinda 2014 yilda sof foydasi hajmi 2,53 mlrd. so'mni bo'lib, sof foydani dividendga yo'naltirilgan qismi 15,07 %ni tashkil qiladi. 2018 yilga kelib esa jamiyatning sof foydasi 4,06 mlrd. so'm bo'lib, sof foydani dividendga yo'naltirilgan qismi 49,65 %ni tashkil qilgan. 2018 yilda to'langan dividendlar hajmi 2014 yilga nisbatan 5,3 barobarga oshgan. Demak, oxirgi yillar mobaynida jamiyat tomonidan olingan sof foydani dividendga yo'naltirilgan qismi oshib borganini ko'rishimiz mumkin.

4-jadval

2015-2018 yillarda "Kvarts" AJ tomonidan dividend to'lovlari tahlili (ming so'm)[8]

Yillar	2015	2016	2017	2018
Ustav kapitali	41 098 157,1	41 098 157,1	82 705 204,4	82 705 204,4
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya	23 963,9	23 963,9	48 224,6	48 224,6

soni				
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya jami summasi	41 098 157,1	41 098 157,1	82 705 204,4	82 705 204,4
1 dona aksiyaning nominal qiymati (soʻmda)	1 715,0	1 715,0	1 715,0	1 715,0
Sof foyda	31 121 018,0	56 185 205,0	88 230 177,3	82 546 873,0
Toʻlangan dividendlar:	14 316 057,8	28 092 926,9	44 115 872,3	-
Sof foydaning dividendga yoʻnaltirilgan qismi	46,0%	50,0%	50,0%	0,0%
Bir dona oddiy aksiyaga toʻlangan dividend (soʻmda)	597,40	1 172,30	914,80	-
Bir dona oddiy aksiyaga toʻlangan dividend (%da)	34,83%	68,36%	53,34%	0,00%

Yuqoridagi 4-jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, “Kvarts” AJ 2018 yilni ham muvaffaqiyatli yakunlagan. 2018 yilda jamiyatning sof foydasi oldingi yiliga nisbatan 5,68 mlrd. soʻmga kamaygan hamda 82,5 mlrd. soʻmni tashkil qilgan. 2014-2017 yil mobaynida jamiyat sof foydasining 46-50 foizi dividend uchun ajratilgan. 2016 yilda olingan 56,19 mlrd. soʻm sof foydaning 28,09 mlrd. soʻmi yoki bir dona aksiyaga 1172,3 soʻmdan (nominal qiymatiga nisbatan 68,36 foiz miqdorida) dividendlar toʻlashga yoʻnaltirilgan. 2017 yilda olingan 88,23 mlrd. soʻm sof foydaning 44,11 mlrd. soʻmi yoki bir dona aksiyaga 914,8 soʻmdan (nominal qiymatiga nisbatan 53,34 foiz miqdorida) dividendlar toʻlashga yoʻnaltirilgan. Lekin, jamiyat 2018 yil yakuni boʻyicha foydasi reinvestitsiyaga yoʻnaltirilgan. Demak, 2014-2017 yillarda “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati tomonidan dividend toʻlov miqdori oshgan hamda olingan sof foydani dividendga yoʻnaltirilganligi oshib borgan.

5-jadval


2014-2017 yillarda “Oʻzbekiston Respublika valyuta birjasi” AJ tomonidan dividend toʻlovlari tahlili (ming soʻm)[9]

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018
Ustav kapitali	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya soni	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0
Egasining nomi yozilgan oddiy aksiya jami summasi	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0	1 069 600,0
1 dona aksiyaning nominal qiymati (soʻmda)	1 000,0	1 000,0	1 000,0	1 000,0	1 000,0
Sof foyda	16 414 034,0	13 217 466,0	15 706 340,0	36 151 885,0	31 952 189,0
Toʻlangan dividendlar:	15 527 019,5	16 414 028,1	13 194 703,3	20 000 001,2	45 104 069,4
Sof foydaning dividendga yoʻnaltirilgan qismi (soʻmda)	94,60%	124,18%	84,01%	55,32%	141,16%
Bir dona oddiy aksiyaga toʻlangan dividend	14 516,66	15 345,95	12 336,11	18 698,58	42 169,10
Bir dona oddiy aksiyaga toʻlangan dividend (%da)	1451,67%	1534,60%	1233,61%	1869,86%	4216,91%

Yuqoridagi 5-jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, “OʻzRVB” AJ 2018 yilni ham muvaffaqiyatli yakunlagan. 2018 yilda jamiyatning sof foydasi 2017 yilga nisbatan 4,2mlrd. soʻmga kamayib, 31,95 mlrd. soʻmni tashkil qilgan. Soʻngibesh yilda jamiyat sof foydasining oʻrtacha 99,85 foizini dividend uchun yoʻnaltirgan. 2014 yilda olingan 16,4 mlrd. soʻm sof foydaning 15,5 mlrd. soʻmi yoki bir dona aksiyaga 14 516,7 soʻmdan (nominal qiymatiga nisbatan 1 451,7 foiz

miqdorida) dividendlar to‘lashga yo‘naltirilgan. 2016 yilda olingan 13,2 mlrd. so‘m sof foydani tashkil etib, sof foydasining 100 foizini hamda oldingi yillardan shakllangan taqsimlanmagan foydadan qo‘shincha 3,2 mlrd. so‘m miqdorida jami 16,4 mlrd. so‘mni yoki bir dona aksiyaga 15 346,0 so‘mdan (nominal qiymatiga nisbatan 1 534,6 foiz miqdorida) dividendlar to‘lashga yo‘naltirilgan. 2018 yilda olingan 31,95 mlrd. so‘m sof foydasi va rezerv kapitali bilan 45,1 mlrd. so‘mi yoki bir dona aksiyaga 42 169,1 so‘mdan (nominal qiymatiga nisbatan 4 216,91 foiz miqdorida) dividendlar to‘lashga yo‘naltirilgan. Demak, oxirgi yillarda “O‘zRVB” AJ tomonidan dividend to‘lov miqdori oshgan hamda olingan sof foydani dividendga yo‘naltirilganligi oshib borganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida tahlil qilingan aksiyadorlik jamiyatlari(AT “Aloqabank”, “Turonbank” ATB, “Kafolat” AJ, “Kvarts” AJ va “O‘zRVB” AJ)ning 2014-2018 yillarda to‘langan dividendlarning olingan sof foydasiga nisbatini quyidagi 2-rasm ko‘rishimiz mumkin



2-rasm. AT “Aloqabank”, “Turonbank” ATB, “Kafolat” AJ, “Kvarts” AJ va “O‘zRVB” AJ tomonidan 2014-2018 yillarda sof foydasidan to‘langan dividendlarning ulishi (foizda).

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatida dividend siyosatini ishlab chiqish korporativ boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dividend siyosatining asosiy maqsadi mulkdorlar tomonidan foydaning joriy iste‘mol qilinishi va uning kelajakdagi o‘shishi o‘rtasida optimal mutanosiblikni o‘rnatishdan iborat. Dividendlar sohasidagi siyosatni aksiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuv kengashishakllantiradi. Yuridik va jismoniy shaxslarning aksiyalarni xarid qilishlaridan asosiy maqsad dividend orqali daromadga ega bo‘lish hisoblanadi.

Dividendlar jamiyatning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lagandan so‘ng o‘z tasarrufida qoladigan sof foydasidan va o‘tgan yillarda taqsimlanmagan foydasidan to‘lanadi.

Mamlakatimizdagi aksiyador jamiyatlarida davlat davlat ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolayotgani shuning uchun foydani taqsimlash mexanizmidagi aksiyorlarning daromad samaradorligiga ayrim hollarda salbiy ta'sir ko'rsatganligi bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, investitsiyalar jalb etishiga to'sqinlik holatlarini yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi sharoitda aksariyat yirik aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni rivojlanib borayotgan bo'lsada, ularning jamiyat faoliyatidagi ta'sirchanligi sezilarli emasdir. Korporativ boshqaruvda foydani taqsimlash mexanizmi va dividend siyosatini takomillashtirish orqali kompaniya nufuzi ko'tarilishiga erishiladi, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatning investitsion jozibadorligini oshirishiga muhit yaratadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlaridagi dividend siyosatini e'tibor bersak, aksiyadorlik jamiyatlarning sof foydasini dividendga yo'naltirilganlik darajasi ortib borayotganligiga qaramasdan, ayrim aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlar bo'yicha daromadlilik darajasi hali ham pastligicha qolayotganligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur holat aksiyadorlik jamiyatlarining mahalliy qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini korporativ manfaatlarni ustun qo'ygan holda xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorida yuzaga keladigan tendentsiyalar bilan muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Buning uchun aksiyadorlik jamiyatlarining dividend, emissiya va investitsiya siyosatlarini qimmatli qog'ozlar bozoridagi rolini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni bartaraf etish va ularning fond bozoridagi rolini shakllantiruvchi muhim shart-sharoitlarni yuzaga keltirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2014 yil 6 may (54-modda);
2. Лукасевич И.Я. Финансовый менеджмент. Учебник / -М.: Эксмо, 2009 г.;
3. М.Н.Миллер, F.Modigliani. Dividend Policy, Growth, and the Valuation of Shares // Journal of Business, October 1961, p. 411-433;
4. Elmirzayev S.E. Zamonaviy korporativ boshqaruv. Darslik / - T.: "Iqtisod-moliya", 2019. 341-bet;
5. www.aloqabank.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi;
6. www.turonbank.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi;
7. www.kafolat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi;
8. www.kvarts.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi;
9. www.uzrvb.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.